

JINOYAT PROSESSIDA FUQAROVIIY DAVO VA BOSHQA MULKIY UNDIRISHLAR

Suyunov Shaxzodbek Shavkatovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

“Tergov faoliyati” kafedrası o'qituvchisi

Sipatdinova Gulzabiyra Bayrambay qizi

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

3-bosqich 326-guruh kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15720511>

Annotatsiya

Ushbu maqolada jinoyat protsessida fuqaroviy da'vo institutining huquqiy asoslari, amaliy ahamiyati hamda boshqa mulkiy undirish shakllarining o'rni tahlil qilingan. Tadqiqotda jinoyat ishlari yuritilayotgan davrda jabrlanuvchining moddiy zarari qanday tartibda undirilishi, fuqaroviy da'vo qanday shakllarda ilgari surilishi va sud tomonidan qanday hal etilishi masalalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, qonunchilikdagi mavjud kamchiliklar va ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy takliflar ilgari surilgan. Fuqaroviy da'vo instituti orqali jabrlanuvchining buzilgan huquqlarini tiklashda davlatning adolatparvarlik tamoyillariga asoslangan faoliyati muhim o'rin egallashi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar

Jinoyat protsessi, fuqaroviy da'vo, mulkiy zarar, jinoyat-protsessual kodeks, jabrlanuvchi huquqlari, sud tartibi, davlat foydasiga undirish, protsessual tartib, huquqiy kafolatlar.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligi shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni o'zining asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilagan. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, jinoyat protsessida fuqaroviy da'vo instituti bevosita jabrlanuvchining mulkiy huquqlarini tiklash, yetkazilgan moddiy zararni qoplash va huquqiy adolatni qaror toptirishning muhim vositasi hisoblanadi. Jinoyat sodir etilishi natijasida nafaqat davlat, balki jismoniy va yuridik shaxslarning mulkiy manfaatlariga ham zarar yetkazilishi mumkin. Shunday holatlarda, jinoyat ishining ko'rib chiqilishi bilan birga, fuqaroviy da'vo doirasida yetkazilgan moddiy zararlarni undirish masalasi ham hal etiladi¹.

Fuqaroviy da'vo jinoyat-protsessual qonunchilikda alohida tartibda ko'rib chiqiladi. Jinoyat ishida da'vogarning arizasiga ko'ra yoki prokuror tashabbusi bilan da'vo qo'zg'atiladi va bu hol jinoyat ishining yuritilishiga bevosita bog'liq bo'ladi². Fuqaroviy da'vo jinoyat ishi bo'yicha ko'rib chiqilayotgan sud ishiga birlashtiriladi va unga nisbatan protsessual kafolatlar taqdim etiladi. Mazkur institut jabrlanuvchining buzilgan huquqini tiklash, jinoyatchilik bilan kurashishda iqtisodiy choralarni kuchaytirish, jinoyatdan zarar ko'rgan shaxs manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida fuqaroviy da'vo qo'zg'atish, uning ko'rib chiqilishi, da'vogar va javobgarining protsessual maqomi, da'vo asoslari va hal etish mexanizmlari aniq tartibga solingan. Shuningdek, qonunchilikda fuqaroviy da'vo bilan

¹ Б.Б.Муродов. Жиноят-протсессуал қонун нормаларини эркинлаштириш йўллари // Олий юридик ўқув юртларида инсон ҳуқуқлари муҳофазасини таъминловчи фанларнинг ўқитишнинг замонавий муаммолари. Тошкент. Ўзбекистон Миллий университети ҳуқуқшунослик факултети 2009. Б. 66-69.

² Б.Б.Муродов. “Жиноятларни тергов қилиш методикаси” фанидан ўқув дастури. Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2012. Б.24

bir qatorda boshqa mulkiy undirish masalalari – jinoyat ashyolarining musodara qilinishi, noqonuniy yo'l bilan orttirilgan daromadlarni davlat foydasiga undirish va boshqa shunga o'xshash mol-mulk masalalari ham o'z aksini topgan³.

Bugungi kunda jinoyat protsessida fuqaroviy da'vo institutining samaradorligini oshirish, protsessual shaffoflikni ta'minlash va jabrlanuvchilarning manfaatlarini yanada kuchliroq himoya qilish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Xususan, jinoyat ishlari bo'yicha sudlarda da'volarning ko'rib chiqilishi muddatlari, da'vogarning huquqlari va mulkiy zararining aniq hisob-kitobi borasida amaliyotda ayrim ziddiyatli holatlar kuzatilmoqda. Shu boisdan, mazkur mavzuning ilmiy-amaliy jihatdan o'rganilishi va takliflar ishlab chiqilishi hozirgi davrda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, surishtiruv, dastlabki tergov jarayonida va sudda fuqaroviy da'vo bo'yicha ish yuritish jinoyat protsessual kodeksida nazarda tutilgan tartibda olib boriladi. Fuqaroviy da'vo bo'yicha yuzaga keladigan protsessual munosabatlar kodeks bilan tartibga solinmagan bo'lsa, unda jinoyat protsessi prinsiplariga xilof bo'lmagan fuqaroviy-protsessual qonunchilikning qoidalari qo'llanadi. Masalan, ziyonni undirish, yo'qotilgan mulkni qoplash masalalari. Fuqaroviy da'vo va fuqaroviy da'vogarning huquqlari, majburiyatlari jinoyatprotsessual kodeksida yetarlicha o'rin olgan⁴.

Fuqaroviy da'voning sudlovga tegishliligi masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 38-moddasida "Jinoyat ishidan kelib chiqadigan fuqarolik da'vosi, agar jinoyat ishi ko'rilganda ushbu da'vo arz qilinmagan yoki hal etilmagan bo'lsa, fuqarolik sud ishlarini yuritish tartibida ko'rib chiqish uchun fuqarolik ishlarining sudlovga tegishliligiga doir umumiy qoidalar bo'yicha taqdim etiladi" deb keltirilgan⁵.

Demak, fuqaroviy da'vo ham jinoyat sudining, ham fuqarolik sudining sudloviga tegishli bo'lishi mumkin. Jinoyat sudida ishning fuqaroviy da'voga oid qismiga da'vo muddati ham, da'vo talabi chegarasi ham jinoyat qonunchiligi doirasida belgilanadi. Agar jinoyat sudida fuqaroviy da'vo hal etilmay qolgan bo'lsa, da'vo muddati ham, uning chegarasi ham fuqarolik qonunchiligi yuzasida ko'riladi. Bu qanchalar to'g'ri?

Qolaversa, jinoyat sudida ushbu jihat hal etilmasdan qolsa, bu fuqaroviy da'vogarning ovvoragarchiligini keltirib chiqaradi. Chunki u bir masala yuzasidan yana boshqa bir sudga, fuqarolik sudiga murojaat qilishi lozim va bu ishni ko'rish fuqarolik ishlarining sudlovga tegishliligiga doir umumiy qoidalar bo'yicha amalga oshiriladi, ya'ni ishni ko'rish muddatlari, uni ijroga qaratish yana qo'shimcha vaqt talab qiladi. Aslida, jinoyat ishlarida fuqaroviy da'vo hal etilmasdan qolishi to'g'ridan to'g'ri bir necha holatda mavjud bo'ladi, ya'ni jinoyatprotsessual kodeksining 413-moddasiga ko'ra, fuqaroviy da'vogar yoki uning vakili sud majlisiga kelmagan taqdirda, sud fuqaroviy da'voni ko'rmaydi, bu holda mulkiy zarar ko'rgan shaxsning fuqaroviy sud ishlarini yuritish tartibida da'vo qilish huquqi saqlangan

³ Ш.Ш.Суюнов. Гиёҳвандлик воситалари ёки психотроп моддалар билан қонунга хилоф равишда муомала қилишдан иборат жиноятларни квалификация қилишнинг муҳим жиҳатлари. "Талқин ва тадқиқотлар" Республика илмий-услубий журнали 10сон. 01.10.2022 йил Б. 105-109.

⁴ Ш.Ш.Суюнов. Компютер техника воситалари орқали содир этилган фирибгарлик жинояти турлари. "Замонавий дунёда педагогика ва психология" номли Республика илмий-амалий конференцияси. 9.06.2023 йил

⁵ Ш.Ш.Суюнов. Гиёҳвандлик воситаларини, уларнинг аналогларини ёки психотроп моддаларини сотиш мақсадисиз ноқонуний ишлаб чиқариш, олиш, сақлаш, жинояти тушунчаси // Жамият ва инновация. – 2025. – В. 6. – Но 1/С. – Б. 267-277.

holda bo'ladi. Sud fuqaroviy da'voni fuqaroviy da'vogarning iltimosiga ko'ra uning ishtirokisiz ko'rishga haqlidir⁶.

Biroq fuqaroviy da'vo prokuror tomonidan quvvatlansa yoki sud uni ko'rishni zarur deb topsa, fuqaroviy da'vogar yoki uning vakili kelish-kelmasligidan qat'iy nazar, sud fuqaroviy da'voni ko'raveradi. "Fuqaroviy javobgar yoki uning vakilining sud majlisiga kelmasligi fuqaroviy da'voni ko'rishni to'xtatmaydi". Demak, jinoyat sudlari tomonidan fuqaroviy da'vogarning iltimosiga ko'ra, fuqaroviy da'voni uning ishtirokisiz ko'rishga haqli, shunday huquq mavjud ekan, nima uchun ortiqcha ovvoragarchilik sodir etilishi kerak?

Masalan, fuqaroviy da'voni ijroga qaratish da'vo jinoyat sudida hal etilsa, jinoyat sudi tomonidan amalga oshiriladi, lekin 539¹-moddaga ko'ra fuqarolik-protsessual qonunchilik va boshqa sud hujjatlariga ko'ra amalga oshirilishi keltirilgan. Ya'ni ijro ustidan nazorat jinoyat sudi tomonidan amalga oshiriladi, chunki hukm qaysi sud tomonidan chiqarilsa, uning ijrosi ham shu sud tomonidan nazorat qilinadi, ammo ijro qilishda fuqarolik-protsessual qonunchilik asosida amalga oshiriladi⁷.

Endi xuddi shu masala yuzasidan xorijiy qonunchilikka yuzlanadigan bo'lsak, Germaniya jinoyat protsessual kodeksining 406-b-moddasiga ko'ra, fuqarolik protsessual normalariga tegishli sud qarorlarining ijrosi fuqarolik ishlari bo'yicha sud qarorlarini ijro etishga nisbatan qo'llaniladigan qoidalar bilan tartibga solinadi va jinoyat ishlari bo'yicha birinchi instantsiya sudi qaysi tumanda joylashgan bo'lsa, fuqarolik yurisdiksiyasi sudiga tegishli hisoblanadi. Ya'ni Germaniya qonunchiligiga ko'ra, fuqaroviy da'vo jinoyat sudida ko'rib chiqilsa, uning ijrosi bilan shu hududda joylashgan fuqarolik sudi shug'ullanadi. Bu mantiqan to'g'ri hamdir⁸.

Bizning jinoyat qonunchiligimizda esa ijro fuqarolik-protsessual qoidalar asosida qo'llanar ekan, fuqaroviy da'voni ustidan ham nazoratni fuqarolik sudlari ta'minlashi to'g'ri bo'lardi deb hisoblaymiz.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, fuqaroviy da'voga oid yana bir jihatga e'tiborimizni qaratsak, "jinoiy hodisa yuz bermaganligi yoki shaxsning jinoyatga daxli bo'lmaganligi, shuningdek, shaxs tomonidan harakat zaruriy mudofaa chegarasidan chiqmagan holda sodir etilganligi munosabati bilan oqlov hukmi chiqarilayotganda, sud JPK 283-moddasi ikkinchi qismi va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Sud hukmi to'g'risida"gi 2014-yil 23-maydagi 7-sonli qarori 10-bandi to'rtinchi xatboshisiga binoan oqlangan shaxsga nisbatan fuqaroviy da'voni qanoatlantirishni rad etadi". Ushbu qoida Jinoyat protsessual kodeksida ham, "Jinoyat natijasida yetkazilgan mulkiy ziyonni qoplashga oid qonunchilikni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi Oliy sud plenumi qarorida ham keltirib o'tilgan. Yuqoridagidan kelib chiqadiki, agar jabrlanuvchi zaruriy mudofaa chegarasidan chiqmagan holda o'zini yoki o'zga shaxsni himoya qilish chog'ida uchinchi shaxsning mulkiga ziyon yetkazib qo'ysa, fuqaroviy da'voni qoplash rad etiladi va da'vogar shu shaxsga va xuddi shu asoslar bo'yicha fuqaroviy sud ishlarini yuritish tartibida da'vo qo'zg'atish huquqidan mahrum bo'ladi. Ushbu vaziyatda fuqaroviy da'vogarning manfaatlariga ziyon yetkazilyapti va

⁶ А.Т.Аширбоев. Айбланувчининг иштирокини таъминлаш имкони бўлмаган тақдирда дастлабки терговни тўхтатиш: Назария ва амалиёт. Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Қорақалпоғистон бўлимининг Ахборотномаси № 1 (2024).– 2024. 95-98 б.

⁷ Н.Қ.Усманалиев. "Оқилона муддат" тамойиилини жорий этиш назарий ва амалий жиҳатлари //Наука и инновации в системе образования. – 2025. – Т. 4. – №. 3. – С. 44-50.

⁸ Ш.С.Агоев., Ташев У. Экспертиза фаолиятининг арманистон республикаси жиноят-протсессуал қонунчилигидаги ҳуқуқий асослари //Развитие и инновации в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 6. – С. 48-56.

uni qoplash masalasi ochiq qolyapti deb hisoblaymiz⁹.

Bundan tashqari, “Jinoyat natijasida yetkazilgan mulkiy ziyonni qoplashga oid qonunchilikni qo’llash bo’yicha sud amaliyoti to’g’risida”gi Oliy sud plenumi qarorida shaxsga nisbatan jinoyat ishi JPK 84-moddasi birinchi qismining-8-bandlari, beshinchi qismining 1,3-bandlariga muvofiq tugatilgan holda unga nisbatan fuqaroviy da’vo ko’rmay qoldirilishi va manfaatdor shaxslarga ularning fuqaroviy sud ishlarini yuritish tartibida da’vo qo’zg’atish huquqi tushuntirilishi lozimligi keltirilgan. Qolaversa, jinoyat ishi apellatsiya, kassatsiya tartibida yuqorida ko’rsatilgan asoslarga binoan tugatilganda ham fuqaroviy da’voga nisbatan shunday oqibatlar yuzaga kelishi nazarda tutilgan¹⁰.

Jinoyat protsessida fuqaroviy da’vo institutining mavjudligi jabrlanuvchilarning buzilgan mulkiy huquqlarini tiklashda muhim rol o’ynaydi. U fuqarolik-huquqiy vositalarning jinoyat protsessiga integratsiyalashuvi orqali nafaqat jinoyat sodir etgan shaxsni jazolash, balki zarar ko’rgan tomon manfaatlarini ham ta’minlashga xizmat qiladi. Fuqaroviy da’vo orqali zararlarning qoplanishi jinoyat ishlari bo’yicha sud qarorlarining ijtimoiy adolat tamoyillariga mos bo’lishini ta’minlaydi. O’zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida fuqaroviy da’vo tartibi aniq reglamentlangan bo’lishiga qaramay, amaliyotda ushbu institutni qo’llashda bir qator muammolar – da’vo muddatlarining cho’zilishi, zarar miqdorining noaniqligi, javobgarning mol-mulkini aniqlashdagi qiyinchiliklar uchramoqda. Bundan tashqari, ayrim hollarda jinoyat ishi doirasida fuqaroviy da’vo ko’rib chiqilmay, jabrlanuvchi fuqarolik sudlariga murojaat qilishga majbur bo’lmoqda, bu esa uning huquqlarini kechiktirib tiklanishiga olib kelmoqda.

References:

Используемая литература: Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 25.01.2020 йилдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. // [Электрон манба].
3. Ўзбекистон юридик энциклопедияси. –Т., 2009. – Б. 199.
4. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т.4. –Т., 2002. – Б. 47.
5. Б.Б.Муродов. Жиноят-протсессуал қонун нормаларини эркинлаштириш йўллари // Олий юридик ўқув юртларида инсон ҳуқуқлари муҳофазасини таъминловчи фанларнинг ўқитишнинг замонавий муаммолари. Тошкент. Ўзбекистон Миллий университети ҳуқуқшунослик факултети 2009. Б. 66-69.
6. Б.Б.Муродов. Жиноят-протсессуал муносабатларда ҳимоячининг иштироки // “Адвокатлик фаолияти: назария ва амалиёт масалалари” мавзусидаги илмий-амалий конференция материаллари. ЎЗР Президенти ҳузуридаги Амалдаги қонун ҳужжатлари мониторинги институти. – Тошкент, 2010. Б. 171-175.
7. Б.Б.Муродов. Хусусий айблов институтини қўллаш самарадорлигини ошириш

⁹ III.C.Агоев., Абдухамидов А. Гувоҳлантириш тергов ҳаракатини ўтказишнинг аҳамияти //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. 7. – С. 49-51.

¹⁰ Хушвактова Н.А. Коррупцияга оид жиноятларни фош қилиш ва тергов қилишда жамоатчилик ёрдамидан фойдаланиш // «Давлат бошқаруви соҳасида коррупциявий хавф-хатарларни бартараф этиш механизмларини такомиллаштириш масалалари»: республика илмий-амалий конференцияси тўплами – Тошкент давлат юридик университетининг ихтисослаштирилган филиали, Т: 2022. Б.78-83.

йўллари // Хусусий айблов ва ярашув институтларини такомиллаштириш чоралари: Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Т.:Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2015й.Б. 34-40.

8. *Б.Б.Муродов.* “Жиноятларни тергов қилиш методикаси” фанидан ўқув дастури. Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2012. Б.24

9. *Ш.Ш.Суюнов.* Гиёҳвандлик воситалари ёки психотроп моддалар билан қонунга хилоф равишда муомала қилишдан иборат жиноятларни квалификация қилишнинг муҳим жиҳатлари. “Талқин ва тадқиқотлар” Республика илмий-услубий журнали 10сон. 01.10.2022 йил Б. 105-109.

10. *Ш.Ш.Суюнов.* Компютер техника воситалари орқали содир этилган фирибгарлик жинояти турлари. “Замонавий дунёда педагогика ва психология” номли Республика илмий-амалий конференцияси. 9.06.2023 йил

11. *Ш.Ш.Суюнов.* Ҳодиса содир бўлган жойни кўздан кечириш тергов ҳаракатининг жиноят содир этган шахсларни аниқлаш ҳамда уларнинг айбини исботлашдаги аҳамияти. “Замонавий дунёда педагогика ва психология” номли Республика илмий-амалий конференцияси.

12. *Ш.Ш.Суюнов.* Гиёҳвандлик воситаларини, уларнинг аналогларини ёки психотроп моддаларини сотиш мақсадсиз ноқонуний ишлаб чиқариш, олиш, сақлаш, жинояти тушунчаси // Жамият ва инновация. – 2025. – В. 6. – Но 1/С. – Б. 267-277.

13. *А.Т.Аширбоев.* Айбланувчининг қаерда эканлиги номаълум бўлган ҳолларда жиноят ишини тўхтатишнинг назарий ва амалий жиҳатлари. Жамият ва инновациялар № 1 (2024).– 2024. – 314-320 б.

14. *А.Т.Аширбоев.* Жиноят ишини тўхтатиш тушунчаси ва аҳамияти. Эксперткриминалистик фаолият: истиқболлар ва инновациялар мавзусидаги халқаро конференция материаллари тўплами. Т., Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги Академияси, 2023. – Б. 381-388.

15. *А.Т.Аширбоев.* Айбланувчининг иштирокини таъминлаш имкони бўлмаган тақдирда дастлабки терговни тўхтатиш: Назария ва амалиёт. Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Қорақалпоғистон бўлимининг Ахборотномаси № 1 (2024).– 2024. 95-98 б.

16. *А.Т.Аширбоев.* Суриштирув ва дастлабки терговни тўхтатиш институти: халқаро тажриба ва ўзбекистон қонунчилигини такомиллаштириш истиқболлари //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. 14. – С. 37-42.

17. *Н.Қ.Усманиев.* “Оқилона муддат” тамойилини жорий этиш назарий ва амалий жиҳатлари //Наука и инновации в системе образования. – 2025. – Т. 4. – №. 3. – С. 44-50.

18. *Н.Қ.Усманиев.* Жиноят ишини юритишни тўхтатиш ва тиклаш муддатлари билан боғлиқ айрим мулоҳазалар //Теоретические аспекты становления педагогических наук. – 2025. – Т. 4. – №. 6. – С. 40-47.

19. *Н.Қ.Усманиев.* Протсессуал муддатларнинг ҳисоблашда қўлланилувчи меъзонларнинг айрим жиҳатлари //проблемс анд солутсионс оф ссиентифис анд инновативе ресеарч. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 25-30.

20. *Н.Қ.Усманиев.* Байназов Ж. Ўғирлик жинояти бўйича ҳодиса содир бўлган жойни кўздан кечириш тергов ҳаракатининг янги усуллари //Наука и инновации в системе

образования. – 2024. – Т. 3. – №. 8. – С. 69-74.

21. *Ш.С.Агоев, Шакирова С.* Қийнаш жиноятини тергов қилиш: назария ва амалиёт //Развитие и инновации в науке. –2024. – Т. 3. – №. 6. – С. 75-81.

22. *Ш.С.Агоев, Абдухамидов А.* Гувоҳлантириш тергов ҳаракатини ўтказишнинг ахамияти //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. 7. – С. 49-51.

23. *Ш.С.Агоев, Асатуллаев Д.* Ахборот технологиялари соҳасидаги ўғирлик жиноятларни тергов қилишнинг ўзига хос хусусиятлари //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. 7. – С. 31-35.

24. *Ш.С.Агоев, Ташев У.* Экспертиза фаолиятининг арманистон республикаси жиноят-протсессуал қонунчилигидаги ҳуқуқий асослари //Развитие и инновации в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 6. – С. 48-56.

25. *Хушвактова Н.А.* Факторы, препятствующие эффективному использо-ванию общественного участия в досудебном производстве / Н.А. Хушвактова // Теоретические аспекты юриспруденции и вопросы правоприменения: сб. ст. по материалам LXV Международной научно-практической конференции «Теорети-ческие аспекты юриспруденции и вопросы правоприменения». – № 11(65). – Москва, Изд. «Интернаука», 2022. DOI:10.32743/25419889.2022.11.65.346588

26. *Хушвактова Н.А.* Коррупцияга оид жиноятларни фош қилиш ва тергов қилишда жамоатчилик ёрдамидан фойдаланиш // «Давлат бошқаруви соҳасида коррупциявий хавф-хатарларни бартараф этиш механизмларини такомиллаштириш масалалари»: республика илмий-амалий конференцияси тўплами – Тошкент давлат юридик университетининг ихтисослаштирилган филиали, Т: 2022. Б.78-83.